

Oriental Journal of Education



THE ROLE OF THE CONTINUOUS EDUCATION (UPBRINGING) CONCEPT IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN GENERAL SECONDARY EDUCATION

Alimardon, Obboskhonov

Master's Student

National University of Uzbekistan (UzMU)

Tashkent, Uzbekiston

Sanjar, Boymurodov

Student

National University of Uzbekistan (UzMU)

Email: obbosxonov1@gmail.ru

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: spiritual education, spirituality, school, morality, virtue, continuity, methods, approaches, reading culture, concept, family, community, pedagogue.

Abstract: This article analyzes the step-by-step implementation of the Continuous Spiritual Education Concept in shaping students' spiritual and moral development in general secondary education.

Received: 23.02.26

Accepted: 24.02.26

Published: 25.02.26

UMUMIY O'RTA TA'LIMDA O'QUVCHILARNING MA'NAVIY KAMOLOTIDA UZLUKSIZ TARBIYA KONSEPSIYASINING O'RNI

Alimardon, Obbosxonov

O'zMU magistranti

Toshkent, O'zbekiston

Sanjar, Boymurodov

O'zMU talabasi

obbosxonov1@gmail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, ma'naviyat, maktab, axloq, fazilat, uzluksiz, metodlar, usullar, kitobxonlik, konsepsiya, oila, mahalla, pedagog.

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy qilish taxlil qilingan.

РОЛЬ КОНЦЕПЦИИ НЕПРЕРЫВНОГО ВОСПИТАНИЯ В ДУХОВНОМ РАЗВИТИИ УЧАЩИХСЯ В СИСТЕМЕ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Алимардон, Оббосхонов

Магистрант

Национального университета Узбекистана (НУУз)

Ташкент, Узбекистан

Санжар, Боймуродов

Студент

Национального университета Узбекистана (НУУз)

obbosxanov1@gmail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
духовно-нравственное воспитание, духовность, школа, нравственность, добродетель, непрерывность, методы, приёмы, культура чтения, концепция, семья, махалля, педагог.	В данной статье проанализировано поэтапное внедрение Концепции непрерывного духовно-нравственного воспитания в процессе формирования духовно-нравственного воспитания учащихся в системе общего среднего образования.

Kirish. Yangi O'zbekistonda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti davlat va jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot oqimi kuchaygan bir davrda o'quvchilarning ongiga turli g'oyalar, qarashlar va qadriyatlar ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday sharoitda umumta'lim maktablarida ma'naviy tarbiyani tizimli, uzluksiz va maqsadli tashkil etish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib ishlab chiqilgan bo'lib, u shaxs kamolotini bosqichma-bosqich shakllantirishga qaratilgan yaxlit tizimni nazarda tutadi. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirish va rivojlantirishda uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Muhokama va natijalar. Avvalo biz ma'naviy tarbiya tushunchasi va uning mohiyati anglamog'imiz kerak. Ma'naviy tarbiya atamasining ma'nosi inson shaxsini shaklini shakllantirishga, madaniy, ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini taminlashga qaratilgan. Turli-xil tadbirlar, ma'naviy ta'sirlar, intilishlar yig'indisini ham bildiradi. Bu tushunchalar yana shuni anglatadiki, ma'naviy tarbiya faqatgina oilada emas balki butun jamiyat bilan bog'liq desak yanglishmagan bo'lamiz.

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir” degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev [1].

Ma'naviy tarbiya – bu shaxsda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, axloqiy fazilatlar, ijtimoiy ma'suliyat, vatanparvarlik, halollik, mehr-oqibat, bag'rikenglik kabi sifatlarni shakllantirishga

qaratilgan pedagogik jarayondir. U faqatgina nazariy bilim berish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchining dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi va xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Axloqiy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi, huquqiy madaniyatni shakllantirish, milliy o'zlikni anglash, estetik va madaniy tarbiya, diniy bag'rikenglik va tolerantlikni rivojlantirish ma'naviy tarbiya asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi – bu shaxsning tug'ilishidan boshlab butun hayoti davomida ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan uzviy tizimdir. Ushbu konsepsiya tarbiya jarayonini maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'lim va jamiyat hayotigacha davom etadigan yaxlit jarayon sifatida ko'radi.

Konsepsiyaning maqsadi – yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, holda asta-sekinlik bilan shakllantirishdan iborat.

Konsepsiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

uzluksizlik – tarbiya jarayoni bosqichma-bosqich va izchil davom ettirish,
tizimlilik – barcha ta'lim muassasalari va ijtimoiy institutlar hamkorlikda faoliyat yuritish,
milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi – milliy qadriyatlar global qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish,
hamkorlik – maktab, oila va mahalla o'rtasidagi hamjihatlikni ta'minlash [2].

Tarbiya va ta'limni bir birida alohida ajratib bo'lmaydi. Bu ikki jarayon o'zaro uyg'un uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, yuksak ma'naviyatli, axloqiy fazilatlarga ega, shu bilan birgalikda odobli, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash hamda tafakkurga ega zamonaviy kasb hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

O'zbekistonda hozirgi paytda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib boriladigan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar asosida shakllantirish talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha tizimli yondashuv, bolalarda boshlang'ich fazilatlarni kafolatli shakllantirishda avvalo oila, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni talab qiladi. Vatanga sadoqat, burch va ma'suliyat, tashabbuskorlik va shu kabi fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani uning amaliy odatlariga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'ladib kelmoqda. Bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida turli xil muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, tirishqoqlik, matonat, harakat fazilatlari yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda.

Umumta'lim maktablarida ma'naviy tarbiyani shakllantirish mexanizmlari esa Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi asosida maktablarda quyidagi mexanizmlar samarali hisoblanadi: dars jarayonida integratsiya, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar, oila va maktab hamkorligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati yuqori hisoblanadi. Mazkur konsepsiya asosida tashkil etilgan tarbiya jarayoni quyidagi natijalarni beradi: o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash hissi shakllanadi, huquqiy va siyosiy madaniyat rivojlanadi, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasi mustahkamlanadi, axborot xurujlariga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil bo'ladi, sog'lom turmush tarzi va ijobiy hayotiy qadriyatlar qaror topadi. Shuningdek, uzluksiz tarbiya tizimi yoshlarni turli yot g'oyalar, ekstremistik qarashlar va ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassalarining 1-11 sinflari uchun Odoynoma, Vatan tuyg'usi, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Dinlar tarixi fanlarini birlashtirgan holda yagona fan sifatida Tarbiya fanini joriy qilish bilan bog'liq tashkiliy, moliyaviy hamda ilmiy-metodik ishlar kompleksini amalga oshirish ko'zda tutilgan edi. Natijasi samara berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2019-yil 23-avgust kuni Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o'qituvchi mavqeini oshirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselekt majlisida [3] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi "ma'naviy tarbiyaning g'oyaviy mohiyati va strategiya yo'nalishini belgilashga doir chora tadbirlarni amalga oshirgan." Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida turli-xil mutassadi tashkilotlar ma'sul hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirish va rivojlantirishda uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu konsepsiya tarbiya jarayonini izchil, tizimli va samarali tashkil etishga imkon beradi. Ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining kafolatidir. Shu bois uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimini takomillashtirish, uni amaliyotga samarali tatbiq etish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, va davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqi.
2. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yil. 1059-son

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev huzurida 2019-yil 23-avgust kuni Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeyini oshirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor majlisi bayoni (27.08.2019-y., 19750-son).